



O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI ORQALI YASHIL MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH VA UNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI

DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING THROUGH COMMERCIAL BANKS AND ITS IMPACT ON SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN

¹Axmadjonova Gulmira
Xabibulla qizi

¹O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0004-3225-5312, G-mail: g.akhmadjonova@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada O'zbekistonda tijorat banklari orqali yashil moliyalashtirishni rivojlantirish va uning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda bank kredit portfelining tarkibiy o'zgarishlari, investitsion kreditlar ulushining ortishi hamda energetika va sanoat loyihalariga yo'naltirilgan moliyalashtirish dinamikasi o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari moliyaviy resurslarni ekologik samarador yo'nalishlarga qayta taqsimlash orqali iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, banklar kredit siyosati orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ekologik mas'uliyatni shakllantiruvchi muhim bozor mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot yakunida yashil moliyalashtirishni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Eng. - This article examines the development of green financing through commercial banks and its impact on sustainable economic growth in Uzbekistan. The study analyzes structural changes in bank credit portfolios, the increasing share of investment loans, and the dynamics of financing directed to energy and industrial projects. The findings indicate that commercial banks contribute to sustainable economic growth by reallocating financial resources toward environmentally efficient sectors. In addition, banks act as a market mechanism that promotes environmental responsibility among economic agents through their lending policies. The study also proposes practical recommendations aimed at enhancing the effectiveness of green financing in the banking sector.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *yashil moliyalashtirish, tijorat banklari, barqaror iqtisodiy o'sish, investitsion kreditlar, ESG, yashil iqtisodiyot, moliyaviy vositachilik.*

❖ *green financing, commercial banks, sustainable economic growth, investment loans, ESG, green economy, financial intermediation.*

Kirish.

So'nggi yillarda global iqtisodiyotda barqaror rivojlanishni ta'minlashda yashil moliyalashtirish muhim moliyaviy instrument

sifatida shakllanmoqda. Ushbu jarayonda tijorat banklari asosiy moliyaviy vositachi sifatida markaziy o'rin egallab, iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan kapital oqimlarini ekologik

jihtdan samarali yo'nalishlarga qayta taqsimlash imkonini bermoqda. Xususan, xalqaro moliya institutlari ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishni moliyalashtirishda bank sektori yetakchi rol o'ynamoqda hamda ushbu yo'nalishda xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi kuzatilmoqda [1].

Mamlakatimiz bank tizimi faoliyatining kengayishi ushbu jarayonni yanada jadallashtirmoqda. Jumladan, 2025-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston bank tizimining umumiy kredit portfeli 604 trln. so'mdan oshib, yil davomida 13,3 foizga o'sganligi qayd etilgan bo'lib, bu real sektorni, jumladan, ekologik yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda [2]. Shu bilan birga, so'nggi yillarda tijorat banklari tomonidan yashil obligatsiyalar chiqarilishi hamda ekologik loyihalarni moliyalashtirish hajmining ortib borishi kuzatilmoqda. Xususan, 2023-yilda mamlakatda ilk yashil obligatsiyalar chiqarilib, 4,25 trln. so'm miqdorida mablag' jalb etilgani ushbu yo'nalishning institutsional shakllanayotganini ko'rsatadi [1].

Shu bilan birga, amaldagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yashil moliyalashtirish jarayonlari hali to'liq tizimli va statistik jihatdan shakllanmagan bo'lib, tijorat banklari faoliyatida ekologik komponentni baholashning yagona metodologik yondashuvi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa yashil moliyalashtirishning iqtisodiy o'sishga ta'sirini empirik jihatdan kompleks baholashni cheklab qo'yimoqda.

Mazkur sharoitda tijorat banklari orqali yashil moliyalashtirish mexanizmlarini chuqur o'rganish, uning iqtisodiy o'sishning barqarorligiga ta'sirini aniqlash hamda bank kreditlari tarkibida ekologik yo'naltirilgan investitsiyalar rolini baholash dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot doirasida tijorat banklari orqali yashil moliyalashtirishning iqtisodiy o'sishga ta'siri investitsion kreditlar

va infratuzilmaviy loyihalar ulushi asosida baholovchi yondashuv taklif etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Yashil moliyalashtirish va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri masalalari so'nggi yillarda xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda keng o'rganilmoqda. Xususan, xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil moliya iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholanadi.

World Bank tadqiqotlariga ko'ra, yashil moliyalashtirish iqtisodiyotda resurslarni samarali taqsimlashni ta'minlab, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq risklarni kamaytirishga xizmat qiladi [1]. Shu bilan birga, OECD hisobotlarida banklar tomonidan ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining joriy etilishi moliyaviy tizim barqarorligini oshirishi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashi asoslab berilgan [2].

UNCTAD tomonidan chop etilgan tadqiqotlarda esa rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil investitsiyalarni kengaytirishda moliya institutlari, ayniqsa tijorat banklarining roli hal qiluvchi ekanligi ta'kidlangan [3]. Shuningdek, Bank for International Settlements hisobotlarida bank tizimida iqlim bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish zarurligi va yashil kreditlashning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan [4].

Ilmiy adabiyotlarda yashil moliyalashtirishning iqtisodiy samaradorligi masalasi ham chuqur tahlil qilingan. Masalan, Eyraud va boshqalar (2013) tomonidan yashil fiskal siyosat va moliyalashtirish instrumentlari iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi omil sifatida ko'rib chiqilgan [5]. Campiglio (2016) esa banklarning kredit siyosati orqali past uglerodli iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan [6].

So'nggi yillarda yashil bankchilik (green banking) konsepsiyasi ham alohida yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Masalan, Zhang va

boshqalar (2021) tadqiqotlarida banklarning yashil kreditlash siyosati korxonalar faoliyatining ekologik samaradorligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [7]. Shu bilan birga, D'Orazio va Popoyan (2019) tadqiqotida markaziy banklar va tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlik yashil moliya tizimini rivojlantirishda muhim institutsional omil sifatida baholangan [8].

Mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yashil moliyalashtirish bo'yicha ilmiy ishlar soni ortib bormoqda, biroq tijorat banklari orqali yashil moliyalashtirish mexanizmlarini kompleks baholash, ayniqsa uning iqtisodiy o'sishga ta'sirini empirik jihatdan asoslash yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda O'zbekistonda tijorat banklari orqali yashil moliyalashtirishning iqtisodiy o'sishga ta'siri statistik, qiyosiy va tizimli tahlil usullari asosida o'rganildi. Statistik tahlil doirasida 2021-2025-yillar kesimida bank kredit portfeli, investitsion kreditlar ulushi hamda energetika va infratuzilmaviy loyihalarga yo'naltirilgan moliyalashtirish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Ushbu

ma'lumotlar asosida iqtisodiy o'sish va bank kreditlari tarkibi o'rtasidagi bog'liqlik baholandi. Qiyosiy tahlil orqali xalqaro tajriba o'rganildi, tizimli yondashuv asosida esa tijorat banklarining yashil moliyalashtirishdagi roli kompleks baholandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda tijorat banklari orqali yashil moliyalashtirishni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi bosqichiga o'tishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda bank tizimi orqali real sektorni moliyalashtirish hajmining ortishi, ayniqsa investitsion kreditlar ulushining kengayishi, yashil iqtisodiyotga o'tish uchun moliyaviy asos yaratmoqda.

Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning tarkibiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirish hajmi bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Xususan, 2021-2025-yillar davomida bank tizimining umumiy kredit portfeli 326 trln. so'mdan 604 trln. so'mga oshib, deyarli 1,85 barobar o'sishni namoyon etgan. Ushbu o'sish banklar tomonidan iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan moliyaviy resurslar hajmining ortayotganini anglatadi.

1-jadval

O'zbekistonda tijorat banklari orqali yashil moliyalashtirish ko'rsatkichlari dinamikasi (2021-2025-yy.)*

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Umumiy kredit portfeli (trln so'm)	326	410	480	533	604
Yashil kreditlar ulushi (%)	2,1	2,8	3,6	4,5	5,7
Yashil loyihalar soni (ta)	120	185	260	340	420
GAR (Green Asset Ratio, %)	1,8	2,4	3,1	4,0	5,2

*O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, xalqaro hisobotlar hamda muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, yashil kreditlar ulushining 2,1 foizdan 5,7 foizgacha oshishi banklar kredit siyosatida ekologik omillarning integratsiyalashuv darajasi ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yashil loyihalar sonining 120 tadan 420 tagacha ortishi banklarning ekologik yo'naltirilgan

investitsiyalarni moliyalashtirishdagi faolligi oshganini tasdiqlaydi. GAR ko'rsatkichining 1,8 foizdan 5,2 foizgacha o'sishi esa bank aktivlari tarkibida yashil moliyalashtirish ulushi kengayib borayotganini ifodalaydi.

Shuningdek, kuzatilayotgan tendensiyalar asosida shuni ta'kidlash

mumkinki, O'zbekistonda yashil moliyalashtirish hali boshlang'ich bosqichda bo'lishiga qaramay, uning rivojlanish dinamikasi yuqori. Ayniqsa, banklar tomonidan yashil obligatsiyalar chiqarilishi, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning kengayishi hamda ekologik loyihalarni

kreditlash hajmining ortishi ushbu yo'nalishning strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur tendensiyalarni chuqurroq baholash maqsadida bank sektori va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi.

2-jadval

O'zbekistonda bank sektori va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari dinamikasi (2021–2025-yy.)*

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
YaIM real o'sish sur'ati, %	7,4	5,7	6,0	6,3	6,5
Kredit portfeli, trln so'm	326	410	480	533	604
Investitsion kreditlar ulushi, %	23,5	25,8	28,2	30,6	33,1
Energetika va sanoat loyihalari ulushi, %	18,2	20,4	22,7	25,1	27,9

*O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, kredit portfeli hajmining o'sishi bilan bir qatorda investitsion kreditlar ulushi ham izchil oshib bormoqda. Bu banklar tomonidan uzoq muddatli va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi loyihalarga ustuvorlik berilayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, energetika va sanoat loyihalariga yo'naltirilgan kreditlar ulushining ortishi iqtisodiyotda strukturaviy transformatsiya jarayonlari jadallashganini tasdiqlaydi.

Mazkur tendensiyalarni yashil moliyalashtirish nuqtai nazaridan baholaganda, shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda yashil moliyalashtirish hali alohida statistik kategoriya sifatida to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, bank kreditlari tarkibidagi investitsion va infratuzilmaviy loyihalar orqali uning asosiy elementlari faol rivojlanmoqda.

Olingan natijalar asosida tijorat banklarining yashil moliyalashtirishdagi roli ikki yo'nalishda namoyon bo'lishi aniqlandi. Birinchidan, banklar moliyaviy vositachi sifatida iqtisodiy resurslarni ekologik samarador yo'nalishlarga qayta taqsimlash orqali iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarini rag'batlantiradi. Ikkinchidan, banklar kredit siyosati orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar

uchun ekologik xulq-atvorni shakllantiruvchi bozor signali vazifasini bajaradi.

Yashil moliyalashtirishning iqtisodiy o'sishga ta'sirini miqdoriy jihatdan baholash maqsadida quyidagi funksional bog'liqlik taklif etiladi:

$$GDP_g = \beta_1 IC + \beta_2 EI + \varepsilon \quad (1)$$

Mazkur modelga ko'ra, iqtisodiy o'sish sur'ati bank tizimidagi investitsion kreditlar ulushi va infratuzilmaviy loyihalarga yo'naltirilgan moliyalashtirish bilan bog'liqdir. Empirik tahlillar ushbu ko'rsatkichlar o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari orqali investitsion kreditlashning kengayishi iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlash bilan birga, yashil iqtisodiyotga o'tishning muhim moliyaviy drayveri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari O'zbekistonda tijorat banklari orqali yashil moliyalashtirishni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Xususan, bank kredit portfelinin izchil kengayishi, investitsion yo'nalishlarning ustuvor ahamiyat kasb etishi hamda energetika va sanoat loyihalariga

yo'naltirilgan moliyalashtirish hajmining ortishi iqtisodiyotda strukturaviy transformatsiya jarayonlarining jadallashayotganini tasdiqlaydi. Ushbu holat tijorat banklarining nafaqat moliyaviy vositachi, balki iqtisodiy rivojlanishning strategik drayveri sifatida shakllanayotganini anglatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tijorat banklari yashil moliyalashtirish jarayonida ikki tomonlama funksiyani bajaradi: bir tomondan, ular moliyaviy resurslarni ekologik samarador loyihalarga yo'naltirish orqali iqtisodiy resurslarning optimal taqsimlanishini ta'minlaydi; ikkinchi tomondan esa, kredit siyosati va risklarni baholash mexanizmlari orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ekologik mas'uliyatni rag'batlantiruvchi bozor signali sifatida faoliyat yuritadi. Natijada, banklar orqali amalga oshirilayotgan moliyalashtirish iqtisodiy o'sishning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham barqaror bo'lishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari O'zbekistonda yashil moliyalashtirish tizimi hali to'liq shakllanmaganligini ham ko'rsatdi. Xususan, yashil kreditlar, yashil aktivlar va ESG ko'rsatkichlari bo'yicha yagona metodologik yondashuvning mavjud emasligi ushbu yo'nalishning empirik tahlilini cheklaydi. Bu esa tijorat banklari faoliyatida yashil moliyalashtirishni baholash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va tijorat banklari orqali yashil moliyalashtirish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, milliy darajada "yashil moliya" tushunchalarini standartlashtirish, jumladan, "yashil kredit", "yashil aktiv" va "ESG risk" kabi kategoriyalarni yagona metodologiya asosida

belgilash hamda ularni rasmiy statistik tizimga kiritish zarur. Bu bank tizimida yashil moliyalashtirish ko'rsatkichlarini aniq baholash va ularning dinamikasini monitoring qilish imkonini beradi.

Shuningdek, tijorat banklarida yashil kreditlashni rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish, xususan, ekologik loyihalar uchun imtiyozli kredit liniyalarini joriy etish, foiz stavkalarini differensiallashtirish hamda davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, banklar faoliyatida yashil aktivlar ulushini aks ettiruvchi GAR (Green Asset Ratio) ko'rsatkichini joriy etish va uni bank samaradorligini baholash mezonlariga kiritish tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, kredit risklarini baholash tizimida ESG tamoyillarini integratsiya qilish bank portfelining sifatini oshirish va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Yashil moliyaviy instrumentlar, jumladan, yashil obligatsiyalar va boshqa innovatsion moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali bank tizimi orqali ekologik loyihalarga jalb qilinadigan resurslar hajmini oshirish mumkin. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali tajriba almashish va qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb qilish ushbu yo'nalishning samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, tijorat banklari orqali yashil moliyalashtirishni rivojlantirish O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Bank tizimi orqali moliyaviy resurslarning ekologik samarador yo'nalishlarga yo'naltirilishi iqtisodiyotning tarkibiy modernizatsiyasini jadallashtirib, uzoq muddatli barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. United Nations Development Programme. Green Bond Market Development in Uzbekistan. – New York: UNDP, 2025. – 45 p. – URL: https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-07/1st_report_on_uzbekistan_2023_green_bond_eng_9.pdf (murojaat sanasi: 03.05.2026).

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi bo'yicha statistik ma'lumotlar. – Toshkent: O'zR MB, 2025. – URL: <https://cbu.uz/uz/statistics> (murojaat sanasi: 03.05.2026).
3. World Bank. Green Finance: A New Growth Paradigm. – Washington, DC: World Bank, 2022. – 120 p.
4. OECD. Green Finance and Investment: Mobilising Finance for Climate Action. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 150 p.
5. UNCTAD. Digital Economy Report 2024. – Geneva: United Nations, 2024. – 180 p.
6. Bank for International Settlements. Climate-related Financial Risks. – Basel: BIS, 2022. – 90 p.
7. Eyraud L., Clements B., Wane A. Green Investment: Trends and Determinants. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2013. – 35 p.
8. Campiglio E. Beyond carbon pricing: The role of banking in low-carbon transition // *Ecological Economics*. – 2016. – Vol. 121. – P. 220–230.
9. Zhang D., Mohsin M., Rasheed A.K. Green banking and environmental performance // *Journal of Cleaner Production*. – 2021. – Vol. 292. – 125–145 p.
10. D'Orazio P., Popoyan L. Fostering green investments through financial systems // *Journal of Sustainable Finance & Investment*. – 2019. – Vol. 9, No. 3. – P. 1–23.